



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 1 (03)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

1

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Tursunov A.M. O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
Abdulazizov A.A. Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
Jurayev D.A. Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar.....	15
Suyarov Sh.S. Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
Кариева Л.С. Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
Axtamov A.U. Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’siri xususida.....	25
Гафуров А.Б. Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
Абиткариев А.М. Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
Abdullayev D.G’. Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
Abdullayev M.G’. Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
Isakov A.Y. Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
Ashurova G.N. Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
Yo‘ldosheva M.F. O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
Қулматов А.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
Babayev A.N. Yoshlar bandligini ta’minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
Sharipov H.A. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
Турдиева Я. Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
Vaxidov A.K. Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
Gaymatova D.G’. Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
Pardayev E.E. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
Ibragimova S.A., Muradov Sh.D. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
Адилов Б.Б. Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
Yoqubova Z.T. Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning konseptual asoslari.....	101
Saidaxmedova N.I., Aripov A.S. Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
Abduvovyeva X.Sh. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga ta’sirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
Умаров А.А. Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибadorligini oshirish.....	116
Shoraximova Z.N. «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	120
Умурзакова З.С. Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш yo‘llari.....	126
Karimov X.O. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

Aхунов М.А. Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
Ахмаджонов С.С. Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
Abdullayeva Sh.А. Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralari boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
Дусанов С.М. Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
Мамаражобов А.С. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
Nigmatova D.Z., Amanov E.G’. Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	157
Ikromjonova M.U. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
Madaminjonov A.O. To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
Jamoliddinova S.S. Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
Akbaraliyev A.E. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
Эрматова С.И. Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
Boyev X.I., Adilov B.B. Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
Raxmonova N.A. Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
Якубова Д.М. Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y. Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
Matyoqubova D.O. Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
Rahmatullayeva F. Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
Mamajonov L.A. Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
Давруков Ф.У. Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
Убайдуллаева Н.Р. Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
Abdullayev A.A. Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
Alimov O.N. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
Mamajonova N.A. Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
Sanaqulova A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
Nazarov N.N. Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
Sanaqulova A., Ochilova M. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
Umarov I.Y. Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

**USTAMA XARAJATLARNING IQTISODIY MOHIYATI, TARKIBI VA ISHLAB
CHIQRISH TANNARXINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI**

**ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ, СОСТАВ НАКЛАДНЫХ РАСХОДОВ И ИХ РОЛЬ
В ФОРМИРОВАНИИ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ СЕБЕСТОИМОСТИ**

**THE ECONOMIC ESSENCE, STRUCTURE AND ROLE OF OVERHEAD COSTS IN THE
FORMATION OF PRODUCTION COST**

Jamoliddinova Surayyoxon Sardorbek qizi Andijon davlat texnika instituti
1-kurs “Buxgalteriya hisobi” mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, ularning tarkibiy tuzilmasi hamda ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada ustama xarajatlarning mazmuni, ularning asosiy turlari, rejalashtirish va taqsimlash mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, ustama xarajatlarning mahsulot tannarxiga ta’siri, ularni optimallashtirish yo‘llari va zamonaviy hisob tizimlarida aks ettirilish xususiyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ustama xarajatlar, ishlab chiqarish tannarxi, xarajatlar tarkibi, iqtisodiy mohiyat, boshqaruv xarajatlari, moliyaviy samaradorlik.

В данной статье представлен научно-теоретический анализ экономической сущности косвенных затрат, их структурного состава и роли в формировании себестоимости продукции. В статье раскрывается содержание косвенных затрат, их основные виды, механизмы планирования и распределения. Также рассматривается влияние косвенных затрат на себестоимость продукции, способы их оптимизации и особенности отражения в современных учетных системах.

Ключевые слова: косвенные затраты, себестоимость продукции, структура затрат, экономическая сущность, управленческие расходы, финансовая эффективность.

This article provides a scientific and theoretical analysis of the economic essence of overhead costs, their structural composition, and their role in shaping production costs. The article highlights the content of overhead costs, their main types, and the mechanisms for planning and allocation. In addition, it examines the impact of overhead costs on production costs, ways to optimize them, and their representation in modern accounting systems.

Keywords: Overhead costs, production cost, cost structure, economic essence, management expenses, financial efficiency.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish, mahsulot tannarxini to‘g‘ri shakllantirish va xarajatlarni maqbullashtirish korxonalar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Raqobat muhitining kuchayib borishi, resurslar narxining oshishi va iste‘molchilar talabining murakkablashuvi sharoitida xarajatlarni chuqur tahlil qilish va boshqarish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish tannarxining muhim tarkibiy qismi hisoblangan ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyatini o‘rganish va ularning ishlab chiqarish jarayonidagi o‘rnini aniqlash zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ustama xarajatlar ishlab chiqarish jarayonida bevosita mahsulot birligi bilan bog‘liq bo‘lmagan, biroq ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va xizmat ko‘rsatish bilan uzviy aloqador xarajatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur xarajatlar ishlab chiqarishning uzluksizligini ta‘minlash, mehnat jarayonini muvofiqlashtirish hamda moddiy-texnik bazani saqlab turish uchun

zarur hisoblanadi. Shu bois, ustama xarajatlar mahsulot tannarxiga bilvosita ta’sir ko’rsatsa-da, ularning miqdori va tarkibi korxonaning umumiy moliyaviy natijalariga sezilarli ta’sir ko’rsatadi [3].

Amaliyot shuni ko’rsatadiki, ko’plab korxonalarda ustama xarajatlarni hisobga olish va taqsimlash mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi tannarxning asossiz oshishiga, mahsulot narxining raqobatbardoshligini pasayishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, ustama xarajatlarning noto’g’ri rejalashtirilishi va nazorat qilinmasligi moliyaviy resurslardan samarasiz foydalanishga sabab bo’ladi. Natijada, korxonalar foydaliligi pasayadi va iqtisodiy barqarorlikka putur yetadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, unda ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, ularning tarkibiy tuzilmasi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o’rni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ustama xarajatlarni boshqarishning samarali usullarini aniqlash, ularni optimallashtirish orqali tannarxni pasaytirish imkoniyatlari ko’rib chiqiladi. Ushbu yondashuv korxonalarda moliyaviy natijalarni yaxshilash va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlashga xizmat qiladi [7].

Ushbu tadqiqot doirasida ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati va ishlab chiqarish tannarxidagi o’rni bo’yicha mavjud o’zbek va xalqaro tadqiqotlar tahlil qilindi. Ilk manba sifatida Islomov va Tursunovning[3] maqolasi iqtisodiy inqiroz sharoitida O‘zbekiston korxonalarida xarajatlarni boshqarish muammolarini chuqur tahlil qiladi. Mualliflar ustama xarajatlarni to’g’ri boshqarish orqali tannarxni nazorat qilish va korxonalar samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ta’kidlaydilar. Bu manba tadqiqotimizga nazariy asos yaratib, ustama xarajatlarning strategik ahamiyatini aniqlashga yordam berdi.

Shodmonov va G’afurov[7], Tursunov[8] va Yo’ldoshevning[10] ishlari boshqaruv hisobi va korxonalar iqtisodiyoti yo’nalishida ustama xarajatlarning tarkibi va hisoblash metodlarini batafsil yoritadi. Ushbu manbalar asosida ustama xarajatlarning turli turlari — boshqaruv xodimlari ish haqi, amortizatsiya ajratmalari, energiya va infratuzilma xarajatlari — aniqlanib, ularning tannarxdagi ulushi tushuntiriladi. Shu bilan birga, mualliflar ustama xarajatlarni optimallashtirish va to’g’ri taqsimlashning moliyaviy natijalarga ta’siri masalasini ko’taradilar.

Xolmatov[9], Abdullayev [1] va Qodirovning[5] ishlari ishlab chiqarish tannarxini shakllantirish jarayonida ustama xarajatlarning amaliy ta’sirini o’rganishga qaratilgan. Ular ustama xarajatlarning mahsulot tannarxini bilvosita shakllantirishini, shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligi va rentabellik darajasiga ta’sirini batafsil ko’rsatadilar. Ergashev (2019) esa korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish bo’yicha metodologik yondashuvni taklif qilib, ustama xarajatlarni moliyaviy rejalashtirish va nazorat qilish tizimining samaradorligini oshirish yo’llarini ko’rsatadi.

So’nggi o’zbek ilmiy maqolalari — Karimov va Usmonova[4] hamda Rustamov va Tursunova[6] — korxonalarda ustama xarajatlarni nazorat qilish va tannarxni optimallashtirish bo’yicha amaliy tavsiyalarni beradi. Ular o’z tadqiqotlarida O‘zbekiston sharoitida xarajatlarni hisobga olishning amaliy usullari, zamonaviy boshqaruv hisobi tizimlari va samaradorlikni oshirish bo’yicha chora-tadbirlarni bayon qiladilar. Ushbu manbalar tadqiqotimizni amaliy jihatdan boyitib, nazariy xulosalarni korxonalar faoliyati bilan bog’lash imkonini beradi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxiga ta’siri masalasini nazariy va amaliy jihatdan mukammal yoritadi. Shu asosda, mazkur tadqiqot ustama xarajatlarni boshqarish va optimallashtirish yo’nalishida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Mazkur ilmiy tadqiqotda ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o’rnini chuqur tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy tahlil usullari uyg’unlashtirilib, iqtisodiy hodisalarning o’zaro bog’liqligi va rivojlanish qonuniyatlari asosida o’rganildi.

Tadqiqotning nazariy asosini iqtisodiy nazariya, boshqaruv hisobi, moliyaviy tahlil va xarajatlar menejmentiga oid mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Ushbu manbalar asosida ustama xarajatlar tushunchasining mazmuni, ularning tasnifi va iqtisodiy ahamiyati tahlil qilindi. Nazariy tahlil usuli orqali ustama xarajatlarning ishlab chiqarish tannarxiga ta’sir mexanizmlari aniqlab berildi [8].

Tadqiqotda tahlil va sintez metodlaridan keng foydalanildi. Tahlil usuli yordamida ustama xarajatlar tarkibiy qismlarga ajratilib, har bir xarajat turi alohida o‘rganildi. Sintez metodi orqali esa ushbu xarajatlarning umumiy ishlab chiqarish jarayoniga ta’siri yaxlit holda baholandi. Shuningdek, induksiya va deduksiya usullari qo‘llanilib, xususiy holatlardan umumiy xulosalar chiqarildi hamda nazariy qoidalar amaliy misollar asosida asoslab berildi.

Statistik va taqqoslama tahlil metodlari tadqiqotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu usullar yordamida ustama xarajatlarning vaqt va hajm bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi, ularning mahsulot tannarxidagi ulushi tahlil qilindi. Turli korxonalarda ustama xarajatlarni hisobga olish va taqsimlash usullarini taqqoslash orqali ularning samaradorligi baholandi [9].

Bundan tashqari, tizimli yondashuv metodi qo‘llanilib, ustama xarajatlar ishlab chiqarish tizimining ajralmas elementi sifatida ko‘rib chiqildi. Ushbu yondashuv ustama xarajatlar bilan boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlar, jumladan, ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi va foyda o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarishda mantiqiy tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi [1].

1-jadval

Ustama xarajatlarning tarkibi va ishlab chiqarish tannarxidagi ulushi

№	Ustama xarajatlar turi	Xarajat summasi (ming so‘m)	Umumiy ustama xarajatlardagi ulushi (%)
1	Boshqaruv xodimlari ish haqi	45 000	30,0
2	Ishlab chiqarish binolarini saqlash xarajatlari	25 000	16,7
3	Amortizatsiya ajratmalari	35 000	23,3
4	Energiya va kommunal xizmatlar	20 000	13,3
5	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi	15 000	10,0
6	Boshqa ustama xarajatlar	10 000	6,7
	Jami	150 000	100

Yuqoridagi jadvalda ishlab chiqarish jarayonida shakllanadigan ustama xarajatlarning asosiy turlari, ularning umumiy hajmi hamda tannarxdagi ulushi aks ettirilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ustama xarajatlar tarkibida eng katta ulush boshqaruv xodimlari ish haqi xarajatlari to‘g‘ri kelib, u umumiy ustama xarajatlarning 30 foizini tashkil etadi. Bu holat korxonada boshqaruv apparatining ishlab chiqarish jarayonidagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi, biroq ayni vaqtda boshqaruv xarajatlarini optimallashtirish zaruratini ham yuzaga keltiradi.

Amortizatsiya ajratmalari 23,3 foizlik ulush bilan ikkinchi o‘rinda turib, ishlab chiqarish vositalarining eskirishi va ularni yangilash bilan bog‘liq xarajatlarning yuqori ekanligini ifodalaydi. Bu esa korxonada asosiy fondlarning texnik holati va ularning samarali ishlatilishi tannarxga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Ishlab chiqarish binolarini saqlash xarajatlari va energiya hamda kommunal xizmatlar xarajatlari mos ravishda 16,7 va 13,3 foizni tashkil etib, ishlab chiqarish infratuzilmasini qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq xarajatlarning muhimligini ko‘rsatadi. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi xarajatlarning 10 foizlik ulushi esa ishlab chiqarishda xavfsizlik talablariga rioya qilish iqtisodiy jihatdan ham muhim omil ekanligini tasdiqlaydi[5].

Umuman olganda, jadval tahlili ustama xarajatlarning ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi salmoqli o‘rnini ko‘rsatadi. Ularni oqilona rejalashtirish va samarali boshqarish orqali tannarxni pasaytirish hamda korxonaning moliyaviy samaradorligini oshirish mumkin.


Mazkur tadqiqot natijalari ustama xarajatlarning ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi muhim iqtisodiy omil ekanligini yana bir bor tasdiqladi. O‘tkazilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, ustama xarajatlar korxonada xarajatlarning sezilarli qismini tashkil etib, ularning hajmi va tarkibi mahsulot tannarxining o‘zgarishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, boshqaruv va umum-xo‘jalik xarajatlarning yuqori ulushi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalasini dolzarb qiladi.

Tadqiqot doirasida tuzilgan jadval ma’lumotlari shuni ko’rsatadiki, ustama xarajatlar tarkibida boshqaruv xodimlari ish haqi va amortizatsiya ajratmalari yetakchi o’rinni egallaydi. Boshqaruv xodimlari ish haqining yuqori ulushi korxonalarda tashkiliy tuzilmaning kengayganligi va boshqaruv jarayonlarining murakkabligi bilan izohlanadi. Mazkur holat bir tomondan ishlab chiqarish jarayonini samarali muvofiqlashtirishni ta’minlasa, ikkinchi tomondan tannarxning oshishiga sabab bo’lishi mumkin. Shu bois, boshqaruv xarajatlarini optimallashtirish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali ularning ulushini kamaytirish imkoniyatlari mavjud[10].

Amortizatsiya ajratmalarining yuqori ulushi ishlab chiqarish vositalarining texnik holati va ularni yangilash zarurati bilan bog’liqdir. Bu esa asosiy fondlardan samarali foydalanish masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va energiya tejamkor uskunalardan foydalanish orqali amortizatsiya va ekspluatatsiya xarajatlarini qisqartirish mumkinligi tadqiqot natijalarida o’z aksini topdi[2].

Shuningdek, energiya va kommunal xizmatlar, ishlab chiqarish binolarini saqlash bilan bog’liq xarajatlarning salmoqli ulushi ishlab chiqarish infratuzilmasining tannarxga sezilarli ta’sir ko’rsatishini ko’rsatadi. Ushbu xarajatlarni nazorat qilish va rejalashtirish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyati mavjud. Ayniqsa, resurslardan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan choralar muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama natijalariga ko’ra, ustama xarajatlarni faqat hisobga olish emas, balki ularni faol boshqarish korxonada iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ustama xarajatlarni mahsulot tannarxiga adolatli taqsimlash, zamonaviy boshqaruv hisobi usullarini qo’llash va ichki nazorat tizimini kuchaytirish orqali moliyaviy natijalarni yaxshilash mumkin. Umuman olganda, tadqiqot natijalari ustama xarajatlarni optimallashtirish korxonaning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatadi[4].



1-rasm. Ustama xarajatlarning ishlab chiqarish tannarxidagi ulushining tarkibiy taqsimoti

1-rasmda ustama xarajatlarning ishlab chiqarish tannarxidagi ulushining tarkibiy taqsimoti aks ettirilgan bo’lib, u ustama xarajatlar tuzilmasining iqtisodiy xususiyatlarini ochib beradi. Rasm

ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ustama xarajatlar bir xil darajada taqsimlanmagan bo'lib, ayrim xarajat turlari tannarx shakllanishida ustunlik qiladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, eng yuqori ulush boshqaruv xodimlari ish haqi xarajatlariga to'g'ri keladi. Ushbu xarajat turining ustama xarajatlar tarkibida yetakchi o'rinni egallashi korxonada boshqaruv tizimining ishlab chiqarish jarayonidagi muhim rolini ko'rsatadi. Shu bilan birga, boshqaruv xarajatlarining yuqori darajasi boshqaruv apparatini optimallashtirish, funksional vazifalarni qayta taqsimlash hamda raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi. Aks holda, mazkur xarajatlar tannarxning asossiz oshishiga olib kelishi mumkin.

Amortizatsiya ajratmalarining sezilarli ulushi ishlab chiqarish vositalarining eskirishi va ularni doimiy yangilab borish ehtiyoji bilan izohlanadi. Diagrammada amortizatsiya xarajatlarining yuqori ko'rsatkichi korxonada asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish masalasining dolzarbligini ko'rsatadi. Texnologik modernizatsiya va yuqori unumli uskunalarni joriy etish orqali amortizatsiya yukini kamaytirish imkoniyati mavjud.

Energiya va kommunal xizmatlar hamda ishlab chiqarish binolarini saqlash xarajatlarining jami ulushi ishlab chiqarish infratuzilmasini ta'minlash tannarxga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ushbu xarajatlarning nisbatan yuqori darajasi resurslardan oqilona foydalanish, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish maydonlaridan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bilan bog'liq xarajatlarning mavjudligi ishlab chiqarishda xavfsizlik talablariga rioya qilish iqtisodiy jihatdan muhim ekanligini anglatadi. Bu xarajatlarni qisqartirish emas, balki ularning samaradorligini oshirish ustuvor vazifa bo'lishi lozim[6]. Umuman olganda, diagramma tahlili ustama xarajatlarni tizimli boshqarish ishlab chiqarish tannarxini optimallashtirishning muhim omili ekanligini ko'rsatadi. Ustama xarajatlar tarkibini chuqur tahlil qilish va ularni maqsadli boshqarish orqali korxonaning moliyaviy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalari ustama xarajatlarning ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi muhim iqtisodiy ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berdi. O'tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ustama xarajatlar ishlab chiqarish jarayonida bilvosita xarajatlar sifatida namoyon bo'lsa-da, ularning hajmi va tarkibi mahsulot tannarxining umumiy darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ustama xarajatlarni to'g'ri hisobga olish va samarali boshqarish korxonada moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ustama xarajatlar tarkibida boshqaruv xarajatlari va amortizatsiya ajratmalari yetakchi o'rinni egallaydi. Bu holat boshqaruv tizimini optimallashtirish, asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shuningdek, energiya va ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan bog'liq xarajatlarning salmoqli ulushi resurslardan oqilona foydalanish masalasining dolzarbligini ko'rsatadi.

Ustama xarajatlarni mahsulot tannarxiga adolatli taqsimlash va ularni rejalashtirishda zamonaviy boshqaruv hisobi usullaridan foydalanish tannarxning aniqligini oshiradi. Bu esa mahsulot narxini shakllantirishda iqtisodiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ustama xarajatlarni optimallashtirish orqali ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, foydalilik darajasini oshirish va korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlash mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ustama xarajatlarni tizimli tahlil qilish va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ustama xarajatlarni boshqarishga oid qarorlar qabul qilishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev, A. A. (2021). Moliyaviy menejment va xarajatlarni boshqarish (pp. 33–57). Toshkent: Yangi asr avlodi.
2. Ergashev, A. R. (2019). Korxonada faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish (pp. 60–84). Toshkent: Fan va texnologiya.

3. Islomov, J., & Tursunov, B. (2015). Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va O‘zbekiston korxonalarini faoliyatiga ta’siri. *Iqtisodiyot va Moliyaviy Tadqiqotlar Jurnali*, 3(1), 45–62.
4. Karimov, F., & Usmonova, N. (2022). Korxonalarda xarajatlarni hisobga olish va tannarxni shakllantirish: O‘zbekiston tajribasi. *Moliyaviy-Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnali*, 5(2), 15–32.
5. Qodirov, D. A. (2017). Sanoat korxonalarida tannarx tahlili (pp. 90–115). Toshkent: Fan.
6. Rustamov, A., & Tursunova, D. (2020). Ishlab chiqarish tannarxini optimallashtirish va korxonada samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar. *Iqtisodiyot va Boshqaruv Jurnali*, 12(4), 1–28.
7. Shodmonov, Sh., & G‘afurov, U. (2019). Korxonada iqtisodiyoti (pp. 112–135). Toshkent: Iqtisodiyot.
8. Tursunov, B. O. (2020). Boshqaruv hisobi (pp. 78–101). Toshkent: Fan va texnologiya.
9. Xolmatov, S. X. (2018). Ishlab chiqarish xarajatlari va tannarxni boshqarish (pp. 54–79). Toshkent: Iqtisod-Moliya.
10. Yo‘ldoshev, K. M. (2020). Boshqaruv hisobi va audit asoslari (pp. 121–144). Toshkent: Iqtisodiyot.

UDK:330.34

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI VA INVESTITSIYA DASTURLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O‘RNI

РОЛЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ И ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОГРАММ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

THE ROLE OF INVESTMENT POLICY AND INVESTMENT PROGRAMS IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Akbaraliyev Abbosbek Erkinjon o‘g‘li. Andijon Davlat texnika instituti
1- kurs “Buxgalteriya hisobi” mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya

Maqolada investitsiya siyosatining ilmiy-nazariy asoslari, milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirishda O‘zbekistonda investitsiya siyosati ustuvor yo‘nalishlarida tutgan o‘rni, ularning afzalliklari va kamchiliklari, milliy va jahon amaliyotida investitsiya yo‘nalishlarining holati tahlili, mavjud to‘siqlar va muammolar haqida atroflicha to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, siyosat, zamonaviy texnika, liberal investitsiya, iqtisodiy o‘shish, tovar-pul,

В статье подробно рассматриваются научно-теоретические основы инвестиционной политики, роль приоритетных направлений инвестиционной политики в Узбекистане в повышении конкурентоспособности национальной экономики, их преимущества и недостатки, анализ состояния инвестиционных направлений в национальной и мировой практике, а также существующие барьеры и проблемы.

Ключевые слова: инвестиции, политика, современная техника, либеральные инвестиции, экономический рост, товарно-денежные отношения.

The article thoroughly examines the scientific and theoretical foundations of investment policy, the role of priority areas of investment policy in Uzbekistan in enhancing the competitiveness of the national economy, their advantages and disadvantages, an analysis of the current state of investment directions in national and global practice, as well as existing barriers and challenges.

Keywords: investment, policy, modern technology, liberal investment, economic growth, commodity-money relations.